

shuaro”, Boburning “Boburnoma”, Munis va Ogahiy asarlarida, keyinchalik H.Qodiriyning “Otam haqida” nomli kitoblari uch koʻrsatgan edi.

Ustozlar davrasida kamol topgan N.Fozilovning shu janrga qoʻl urib uning yuksak namunalari yaratganligi tahsinga sazavordir.

Asarlariga xalqlar doʻstligi gʻoyasini chuqur singdirgan adib qaysi millat vakili timsolini yaratmasin, oʻsha qahramon mansub millat tili, urf-odatlar, turmush tarzini bir daqiqa boʻlsin hayolidan qochirmaydi. Binobarin, adib yaratgan qahramon nutqi va feʼl-atvorida millati ruhiyati butun nozikligi bilan oʻz ifodasini topadi. Natijada uning xarakter takomili kitobxonda ishonch uygʻotadi.

Adib ijodining yutugʻini taʼminlagan omillardan yana bir soʻz va iboraga qahhorona hassoslik bilan yondashishdir. Uning qissa va hikoyalari oʻqigan ziyar kitobxonning oʻsha davr bolalar adabiyotidagi quruq pand-nasihattan iborat “xavfli virus” dan xoliligini payqashi qiyin emas.

Kezi kelganda, “Topdimu yoʻqotmadim” dagi barcha asarlarni xotirnavislikning mumtoz namunalari tarzida baholashdan yiroqmiz. Kitobdagi “Azizim”, “Saida opamiz” kabi baʼzi esselarida asar qahramonlari bilan bogʻliq tafsilotlarga kengroq oʻrin berilgan boʻlsa, “Shoirning bax-

ti”, “Saboq” esselarida asar qahramonlari oʻrniga koʻproq muallifning oʻz kechinmalariga toʻxtalishi ortiqchadek tuyuladi. Bu esatibiyki, oʻquvchini zeriktiradi.

Shunga qaramay, taniqli bolalar yozuvchisi, xalqlar doʻstligining tolmas kuychisi Nosir Fozilovning hassos adib va sinchkov tarjimon sifatidagi koʻp yillik kuzatishlari asosida yaratilgan va Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor boʻlgan “Topdimu yoʻqotmadim” xotira va voqeyi hikoyalar kitobi oʻzining badiiy, maʼrifiy, tarbiyaviy ahamiyatiga koʻra istiqbol davri adabiyotining yuksak namunalari qatoridan joy olishi shubhasiz.

“Shum bolaning nabiralari” qissasi uchun Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining Gʻofur Gʻulom nomidagi mukofoti (1985), tarjimalari uchun Qozogʻiston Yozuvchilar uyushmasining Beyimbet Maylin mukofoti (1986), “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi” unvoni (1989), “Ustozlar davrasida” kitobi uchun Hamza nomidagi Oʻzbekiston davlat mukofoti (1990), Qozogʻiston Yozuvchilar uyushmasining “Olosh” nomli xalqaro mukofoti (2000), “El-yurt hurmati” ordeni (1999), “Topdim-u yoʻqotmadim” kitobi uchun Oʻzbekiston Respublikasi davlat mukofoti (2011) bilan taqdirlanishi yozuvchining kamtarin ijodiga berilgan munosib bahodir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. “Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”. Oʻz AS, 2017 yil 4 avgust.
2. Adashboev T., D.Rajab. Sattrlardan taralgan mexr. –T.: “Turon zamin ziyo”. 2017.
3. Barakaev P. JonaJonim, sheʼriyat. –T.: “Chʻlpon”, 1997.
4. Barakaev P., Ochilov E. Badiiy tasvir mahorati. –T.: “Muharrir”, 2019.
5. Jamilova B. Oʻzbek bolalar adabiyoti. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “Noshir”, 2019.
6. Ibrohimova Z. Kichkinoylar adabiyotining xususiyatlari. –T.: “Ukituvchi”, 1994.
7. Irixojayeva S. Bolalar adabiyotida didaktika. –T.: “Fan”, 1978.
8. Milliy istiqbol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “Oʻzbekiston”, 2000.
9. Musurmonova O. Maʼnaviy kadrlar va ʻshlar tarbiyasi. – T.: “Ukituvchi”, 1996.
10. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro: “Durdona”, 2019.
11. Shermatova U. Tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatan timsoli. –T.: «Nodirabegim». 2021.
12. Oʻzbek bolalar adabiyoti antologiyasi. 2 jildlik. 1-2- jildlar. –T.: “Oʻqituvchi”, 2017.
13. Oʻzbek bolalar adabiyoti. –T.: “Esh gvardiya”, 1976.
14. Kuzi Ismoil. Shʻx akalari, shumtakalar. –T.: “Tafakkur kanoti”, 2016.

REZYUME. Ushbu maqolada bolalar yozuvchisi Nosir Fozilov esselari badiiy-maʼrifiy jihatdan tahlilga tortilgan. Maqolada Nosir Fozilov hayoti bilan bogʻliq maʼlumotlarning keltirilishi kitobxonni adib asarlarini badiiy anglashiga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются сочинения детского писателя Насира Фазилова. Информация о жизни Насира Фазилова в статье помогает читателю понять творчество писателя.

SUMMARY. In this article, the essays of the children's writer Nasir Fazilov are analyzed. Information about the life of Nasir Fazilov in the article helps the reader to understand the works of the writer.

SHEʼRIYATDA DIALOG VA UNING BADIY FUNKSIYASI

S.Matyakupov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: dialog tarixi, adabiyot nazariyasi, oʻrganilish tarixi, badiiy funksiya, kommunikatsiya, ifoda uslubi.

Ключевые слова: история диалога, теория литературы, история обучения, художественная функция, общение, стиль выражения.

Key words: history of dialogue, literary theory, history of learning, artistic function, communication, style of expression.

Badiiy dialog mustaqil hayotiy hodisa sifatida shakllangan, qadim davrlarda fan va falsafaning oʻziga xos talqinlash vositasi boʻlib xizmat qilganiga qaramasdan, badiiy tafakkur elementlaridan xoli boʻlmagan. Badiiy tafakkur sarhadiga oʻtgandan keyin esa tabiiy ravishda badiiy nutqning ichki tarkibida oʻz vazifasini bajara boshlagan. Badiiy-uslubiy vazifa bajarishi bilan birgalikda badiiy asarning ichki tashkillanish jarayonlariga kuchli taʼsir etgan. Fikr kontrasti, badiiy gʻoyalar, estetik ideallarning jonli tarzda shakllanishi, asar kompozitsiyasida tezis-antitezis-sintez tizimining maydonga kelishida muhim rol oʻynaydigan yetakchi komponentga aylangan. Bir soʻz bilan aytganda, badiiy nutqning yetakchi komponenti boʻlib qolgan.

Badiiy nutq haqida qisqa, loʻnda, umumlashtiruvchi tavsifni esa biz birinchi navbatda adabiyotshunoslik lugʻatlaridan topamiz. N.Hotamov, B.Sarimsoqovlar tomonidan yozilgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻatida” uslub, dialog, nutq maromi, personaj nutqi kabi tushunchalar izohlangani

holda, badiiy nutq, sheʼriy nutqqa bagʻishlangan izoh uchramaydi. Mustaqillik davrida yozilgan milliy “Adabiyotshunoslik lugʻati”da badiiy nutq, uning tuzilishi, tarkibiy qismlari, komponentlari masalasiga maxsus toʻxtalinmagan. Ammo “dialog”, “nutqiy xarakteristika” kabi maqolalarda badiiy nutqning ayrim belgilari qayd etib ketilgan. Jumladan, sheʼriy nutq haqida “Lugʻat”da shunday maʼlumotlar keladi: “**Sheʼriy nutq** – poetik nutq, nazm; muayyan bir oʻlchov (vazn) asosidagi ritmga ega, oʻzining musiqiy jarangi, emotsional-hissiy toʻyintirilganligi bilan farqlanuvchi nutq shakli. Sheʼriy nutqdagi oʻziga xos intonatsiya, musiqiylik ritmik boʻlaklar va ritmik vositalar, oʻziga xos fonetik va sintaktik tashkillanish orqali vujudga keladi. Sheʼriy yoʻlda yozilgan lirik asardagi kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning oʻquvchiga “yuqtirilishi”da uning ritmik-intonatsion tomoni muhim ahamiyat kasb etadi. Yaʼni sheʼrning ritmik-intonatsion xususiyatlari uning mazmuni bilan belgilanadi, mazmun bilan uygʻunlik kasb etadi. Oʻzining kelib chiqishi jihatidan sheʼriy nutq badiiy nutqning nasriy shaklidan

qadimiyoq, aniqrog'i, o'z vaqtida u badiiy nutqning yagona shakli bo'lgan" [10:253]. She'riy nutqqa berilgan ushbu qisqa va lo'nda ta'rifning o'ziyoq: a) uning qadimiyligi, nasriy nutqdan oldin paydo bo'lganligini (bu yerda maqola muallifi sof janrlashgan nutq shakli haqida gapirayotganini e'tiborga olish lozim, aslida mutaxassislar dastlab badiiy nutqning epik shakli, mif va eposning nasriy qismi paydo bo'lganini uqtiradilar, S.M.), she'riy nutq tarixi; b) ritm va musiqiy jarangdorligi; v) hissiy-emotsional ta'siri, o'quvchiga yuqtirilishi, kayfiyat hosil qilishi, retseptiv funksiyasi, kommunikativ funksiyasi; g) fonetik (shakliy) va sintaktik (mazuniy) uyg'unlashuv natijasida maydonga kelishi; d) mazmunning shakl, shaklning mazmun vositasida yetkazilishi kabi eng muhim tarkibiy xossalari, ichki komponentlari haqida tasavvur beradi. Biroq bu maqolada she'riy nutqning sintaktik jihatlariga emas, struktur-shakliy tomonlariga ko'proq urg'u berilayotgani seziladi. Buni faqat mazkur lug'at mualliflarining talqini deyidigan bo'lsak, biryozlama fikrlagan bo'lamiz. She'riy nutqda ritm hamda vaznning yetakchi komponent sifatida ko'rsatilishi D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevlarning "Adabiyotshunoslik lug'ati" gacha yozilgan barcha boshqa lug'atlarga ham xos. Albatta, badiiy nutqning barcha tarkibiy qismlari qamrab olingan, ularning mukammal tavsifi berilgan, to'la, spesifikasi, vazifalari belgilangan ilmiy ta'rifning bo'lishi ham mumkin emas. Chunki badiiy nutq, jumladan, she'riy nutq bir joyda qotib qolgan, o'zgaras hodisa deyish to'g'ri bo'lmaydi. Uning o'ziga xosligi ham, sof poetik birlik ekani ham uning aynan "harakatdagi estetika" (V.Belinskiy) ekani bilan belgilanadi.

Xorijdagi nazariy manbalarda "Badiiy nutq" – "poetik nutq" (поэтическая речь), "badiiy nutq" (художественная речь), "she'riy nutq" (стихотворная речь) singari turlicha istilohlar bilan ataladi. Umumiy holatda: "Nutq o'ziga xosliklarini badiiy ijod va badiiy qabullash predmeti sifatida jamlovchi – badiiy nutq" tarzida tavsiflanadi [Qarang. 12]. Lingvistik nuqtayi nazardan: "Nutq – til mahsulotlaridan shu tilning boshqa vakillari yoki muayyan guruhi, o'z-o'zi bilan muloqot qilish uchun foydalanayotgan so'zlovchi faoliyati" [9], deya tavsiflanadi. Badiiy-estetik nuqtayi nazardan: "Badiiy nutq (речь художественная) – (poetik nutq) til estetik funksiyasini realizatsiya qilish. Badiiy nutq spesifikasi uning har bir elementiga xos mazmun-mohiyatni maksimal darajada aks ettirishida. Xalq og'zaki ijodiyotida shakllanadi" [2], tarzida ta'riflanadi. She'riy nutq esa: "Poetik nutq – bu aks ettirishning o'ziga xos turi. U nasriy kommunikatsiya shakllaridan farq qiladi. She'riyatda hissiyotni uzatish, obrazlarlar yaratish, o'quvchida muayyan assotsiatsiya hosil qilish uchun turli-tuman uslub shakllari, adabiy figuralardan foydalaniladi" [11], deb xarakterlanadi. Mazkur ilmiy xarakteristika va ta'riflarda badiiy nutqning besh shakli – so'zlashuv (dialogik), umumiy (prozaik, dramatik, she'riy), emotsional (lirik-psixologik), retseptiv (hissiyotlarni realizatsiya qilish), kommunikativ (poetik aloqa), ajratib ko'rsatilgan. Ichki va tashqi komponentlari belgilangan.

Umuman, badiiy nutq va badiiy asar tiliga nisbatan filologiyaning yetakchi muammosi sifatida perespektiv yondashuv o'tgan asrning 10-20-yillaridan jiddiy tus olgani ma'lum. A.N.Veselovskiy, A.Potebnyaning bu yo'nalishdagi jiddiy tadqiqotlari, Amerika, Fransiya, Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Germaniyalik olimlarning lingvopoetikaga doir tadqiqotlari, ayniqsa rus "formal maktabi" vakillarining ilmiy izlanishlari bu sohada muhim yangiliklarning maydonga kelishiga olib keldi. "Badiiy til – tilning estetik funksiyasidir" (O.M.Brik), "Badiiy til – badiiy tasvirga sozlangan tildir" (L.P.Yakubinskiy) yoki "Poeziya o'ziga xos yo'l bilan tashkillangan til sifatida qaralishi mumkin va lozim" (R.Yakobson) singari tezislar badiiy nutq badiiy til va

poeziyaning eng muhim komponenti ekanini ko'rsatadi.

A.A.Potebnya har bir yangi so'zning paydo bo'lishini yangi mazmunning maydonga kelishi uchun vosita bo'lishini ta'kidlar ekan, buning dastlabki holatda uch elementdan tashkil topishini aytadi: a) qismlarga bo'lingan tovushlar birligi: mazmunning tashqi belgisi; b) tasavvur: belgining ichki mazmuni; v) sof ma'no: tovush va mazmun uyg'unligi [8:133]. Ko'rinadiki, bu yerda olim nainki jumla yoki matn, balki so'zning kommunikativ funksiyasi, dunyoga kelishi va qabul qilinishi shakl-mazmun hodisasining eng kichik birligi sifatida izohlaydi. Demak, so'z dastlab tovush va shakl sifatida, so'ngra tasavvur yoki ichki mazmun sifatida, oxirida tovush (tashqi, shakliy) va tasavvur (ichki, mazmun)ning tabiiy uyg'unligi sifatida badiiy vazifa bajaradi. Shu tariqa jonli nutq maydonga keladi. Bu esa o'z navbatida badiiy nutqning paydo bo'lishi, "fikir harakati" (A.Potebnya) uchun muhim zamin bo'lib xizmat qiladi. So'z ichki jarayonlariga xos dialogik uyg'unlik aynan muloqot jarayonidagi dialogga asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada, kommunikatsiya jarayoni maydonga chiqadi, "ijtimoiy hayotda fikrlar almashinuvi" [8:135] ya'ni dialog vujudga keladi.

Olimning quyidagi fikrlari yuqorida biz kelgan xulosalarni yanada quvvatlaydi: "So'zning so'zlovchiga ta'siri. Biz uchun dunyo o'zimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Biz tomonimizdan bajariladigan vazifa "men" va "boshqa" deya ajratadiganimiz tor ma'nodagi dunyo o'rtasini doimiy tarzda chegaralab turishdir". Olimning fikricha, "Poeziya keng ma'nodagi inoskazanie (istoria, kinoya, qochirim)"dir" [8:141]. Buni "men" (muallif, lirik qahramon) tomonidan aytilishi yoki aytilgan poetik so'zning "boshqa" tomonidan qabul qilinishi tarzida tushunadigan bo'lsak, badiiy dialogni badiiy nutqning eng muhim komponenti ekani to'g'risidagi haqli xulosaga kelamiz.

Masalan, shoir Abdulla Oripovning:

Jahldor tabiat endi yuz o'girdi,
Boqmadi chopsak ham yig'lab ortidan.
Tirik ot o'rniga yog'och ot berdi,
Uyni esa berdi, yerning ostidan..." [6:82].

satrlaridagi "tabiat", "yog'och ot", "yer ostidagi uy" so'zlari to'raligicha "inoskazanie", ya'ni istoradir. Bu so'zlar bir vaqtning o'zida muallif, lirik qahramon va keng o'quvchilar ommasini ham qamrab oladigan, ularda qo'rquv assotsiatsiyasini uyg'otadigan metaforalar bo'lib hisoblanadi. O'quvchi bu yerda "jahldor tabiat" istorasida Xudo, taqdir, tabiat qonunlarini, "yog'och ot" istorasida umr oxiri, o'lim, tobutni, "yer ostidagi uy" istorasida insonning so'ngi manzilini, qabrni tushunadi. Bir qarashda shoir dunyoning o'tkinchiligi, umrning qisqaligi, qismatning bevafoqligi haqida monologik fikr yuritayotganga o'xshaydi. Ammo ajratib ko'rsatilgan istoraviy elementlar muallifning o'z-o'zi lirik qahramon va o'quvchi bilan polifonik munosabatga kirishuvini ta'minlagani ma'lum bo'ladi. She'riy parchani umumiy holatda, nisbiy mustaqil badiiy matn deb olsak, u mustaqil holatida badiiy nutq yoki she'riy nutqni tashkil etadi. Uni metaforalar tizimida tahlil etganimizda esa dialog badiiy nutqning muhim komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, A.A.Potebnya haqli qayd etganidek, qism orqali butunni tushuntirish, badiiy talqin etish, poetik dialogizatsiya maydonga keladi.

V.Jirmunskiy, A.Potebnya lingvistik, falsafiy, psixologik tarzda tushuntirgan masalani sof lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil etadi. Masalan, olimning she'riy kompozitsiyaga doir kuzatishlari lirik matnda ro'y beradigan dialogik jarayonlarning lingvistik nuqtayi nazardan talqin etishi, lingvopoetik dialogizatsiyaning intensiv jarayonlarini badiiy nutq doirasida tahliliy asoslashi bilan diqqatga sazovor. "She'riy kompozitsiya qurilishi faqat ritm yoki urg'ularning tizimli komponentlar

hosil qilinishi bilan emas, ularning o'zaro lingvistik munosabati orqali, sintaktik guruhlar bilan chambarchasligi bilan ham belgilanadi. Bunda gap, gap bo'laklari, gapdagi ibora, gapdagi so'z, so'z bo'laklari, harf va tovushlar vositasida ma'no ko'chishi yuz beradi" [4:151-152]. Umuman, she'riy so'z yoki she'riy nutq muayyan kompozitsion tizim hosil qilgandagina butun poetik tekst sifatida A.Potebnya qayd etgan dialogik jarayonlarni maydonga keltiradi. Uning ta'sir kuchi, matn ichi va matn tashqarisidagi dialogik vazifasi aynan kompozitsion butunlik hosil qilishi bilan bog'liq. Bunda gapdan harf va tovushlarga, harf va tovushlardan gapga tomon doimiy harakatlanib turuvchi dialog hosil qiluvchi vositalar "men" va "boshqa" o'rtasidagi munosabatning mukammal chiqishini ta'minlaydi.

Rauf Parfining

Tong otmoqda, tong o'qlar otar,
Tong otmoqda, quyosh – zambarak.
Yaralangan Yer shari yotar,
Boshlarida yashil chambarak... [7:75].

degan mashhur satrlarini she'riy nutq va uning dialog hosil qilish jarayoni nuqtayi nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, shunday manzara hosil bo'ladi:

1) ushbu parchadagi kalit gap "Tong otmoqda". Ushbu gap she'riy kompozitsiyaning ikki o'rnida kelgan. Gapning dastlabki ma'nosi oddiygina xabar. Tun tugab, kun boshlanayotganini bildirib keladi.

2) faqat ikkinchi satrdagi "Tong o'qlar otar" gapi bilan sintaktik, maromiy, urg'uli, alliteratsion, omonimik, morfologik va fonetik munosabatga kirishgandan keyin birinchi satr o'zining oddiygina xabar beruvchilik, ya'ni darak gaplik xususiyatini lingvopoetik yoki she'riy nutqlik xususiyatiga almashtiradi. "Tong o'qlar otar" gapi o'quvchida badiiy assotsiatsiya uyg'otib, uni quyosh chiqayotgani haqidagi xulosaga olib keladi. Haqiqatdan ham tong qo'ynini yorib, uxlab yotgan Yer ustiga tushayotgan quyosh nurlari yonib turgan kamon o'qi, miltiq yoki zambarakdan otilyotgan yonar o'qlarga o'xshaydi.

3) she'rdagi ikkinchi "Tong otmoqda" gapi endilikda quyosh chiqayotganini bildirmaydi. Aynan tong otayotganini, omonimik tovlanishi orqali esa tong yerni nur o'qlari bilan o'qqa tutayotganini bildiradi. Bu gapdagi otmoq sintaktik jihatdan to'g'ridan to'g'ri o'q uzmoqqa o'tar ekan, A.A.Potebnya qayd etgan "иносказание" (istoraviylashuv) vujudga keladi. O'q uzishdan olingan qism Quyosh nuriga olib berilib, metaforani hosil qiladi.

4) keyingi satrdagi "Quyosh - zambarak" gapi poetik ma'noni yanada aniqlashtiradi. Endi nur manbai to'g'ridan to'g'ri o'q uzish vositasiga aylantiriladi. Lekin bunday aniqlashtiruv, she'riy matn, bir butun she'riy nutq bilan sintez hosil qilib, o'quvchini aniq mantiqiy anglamga emas, chalg'itish, she'r ustida yana mushohada qilish ehtiyojiga olib keladi. Axir qanday qilib quyosh zambarak bo'lishi, zambarakka o'xshab o'q otishi, Yer sharini o'qqa tutishi mumkin?! Bunday poetik "chilg'ituv" dialogiklashuv natijasida retseptiv jarayondagi metaforik anglamni kuchaytiradi.

5) she'rdagi oxirgi ikki satrning kompozitsiyaga qo'shilishi, she'riy kompozitsiyada sintezni tashkil qilishi bilan masala oydinlashadi. Otayotgan tong – sahar, subhi sodiq bilan uning o'q otishi o'rtasida hosil bo'lgan sintaktik antitezis "Yaralangan Yer shari yotar / Boshlarida yashil chambarak" satrlarida sintezlashuvi bilan she'r maqsadi oydinlashadi. O'quvchi shoirning bu yerda hech qanday urush manzarasi yoki jang maydoni tasvirini emas, musaffo tong otish jarayonini tasvirlayotganini anglab yetadi. Boshida qonga belangan doka emas, "yashil chambarak"

bilan yaralanib yotgan Yer metaforasi uni shunday xulosaga olib keladi. Ikki ziddik tong otishi va o'q otishi o'rtasida ro'y beradigan dialogik kombinatsiya natijasida she'riy nutqning poetik nuqtayi nazardan yuksak namunasi maydonga keladi.

V.M.Jirmunskiyning "She'rga xos tasavvur doimo umumiydir" [5:20] degan nazariy xulosasidan kelib chiqadigan bo'lsak, yuqorida tahlil etilgan R.Parfi she'rineing retseptiv jarayonda nima uchun umumiylik kasb etganligi ma'lum bo'ladi. Aristotel "Poetika"sida ilgari surilgan badiiy nutqda o'quvchi uchun umumiy yoki tanish bo'lgan so'z, ibora, metaforalarni qo'llash zarurati haqidagi nazariy talabning asl mohiyati shu joyda yorqinroq ochiladi. Shoir bu talabga qanchalik izchil rioya qilsa, badiiy qabullash yoki qabullash jarayonidagi assotsiatsiya, uning ortidan keluvchi talqin turli-tuman bo'lishidan qat'i nazar, tasavvur umumiy bo'ladi. Tong otishi, quyoshning chiqishi, quyosh nuri ostidagi Yerning yashillikka burkangancha yastanib yotishi umuman barcha odamlar uchun tanish manzara. R.Parfi she'ri o'quvchiga shu taassurotni uyg'otar ekan, tasavvurlar umumlashadi. A.Blok 1906-yilda chop etilgan bir maqolasida shunday yozadi: "Har qanday she'r – bir necha o'tkir so'z ustiga tortilgan choyshabdir. Bu so'zlar she'r osmonida yulduzdek charaqlab turadi. She'r shu so'zlarning hisobigagina mavjuddir" [3:40]. R.Parfining tahlil etilgan ushbu she'rda ajratib tahlil etilgan so'zlar xuddi A.Blok aytgan vazifani bajaruvchi "o'tkir so'zlar"dir. Bir qarashda she'r uchun mantiq ortiqchadek bo'lib tuyuladi. Mantiq hukmron bo'lgan joyda poetik tasavvur siqib chiqariladigandek tushuncha paydo bo'ladi. Ammo she'rning ham o'z mantig'i bo'ladi. Bu mantiq hayotiy yoki matematik mantiqdan farq qiladi.

Arastu "Ritorika"sining 9-bobida go'zallikning "ehtiyoj"ligi, "ehtimolliligi" bunda tashkillanishning muhimligiga urg'u beriladi: "Mantiq badiiy asar yoki badiiy nutq tarkibida nima yoki kim go'zalligiga ishonitirishga xizmat qiladi" [1]. Yuqorida qayd etilgan she'riy tasavvurning uyg'unligi haqidagi tezis ham mohiyat nuqtayi nazaridan badiiy mantiqqa tayanadi. Chunki shoir yoki o'quvchining mantiqiy bilimlarigina R.Parfi she'ridagi ikki zid tushunchaning mantiqiy qiyosi, dialogik qabul qilinishiga, pirovard natijada dunyo hayoti va uning go'zal tungi haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, Aristotel "Go'zallik ehtiyoj, go'zallik maqtovga loyiq, chunki u ezigulikdir" degan xulosani e'tirof etadi [1]. R.Parfi she'ri tahlili misolida ma'lum bo'ldiki, yovuzlik fonida, urush manzarasi misolida yetkazilgan poetik mushohada o'quvchini qiyoslash orqali ezigulikga, Yer sharidagi osuda tong haqidagi poetik xulosaga olib keldi.

Ko'rinadiki, badiiy dialog barcha adabiy janrlarda, jumladan, lirik janrlarda ham nutqiy kommunikatsiyaning turli shakl va usullarini hosil qiladi, asar nutqiy jarayonlarida asosiy o'rin tutadi. Umuman, so'z san'ati yoki u bilan bog'liq janrlar jonli "nutqiy jarayon", "nutq oqimi" tarzida tushuniladi. So'zlashuvning barcha shakllari o'zining chegarasiga ega bo'ladi. Nutqiy chegara esa "nutqiy subyekt, ya'ni so'zlovchining almashinuvi" bilan belgilanadi. Nutq jarayonida so'zlovchining almashinuvi "boshqa" so'zlovchining yoki yana bir nutq subyekting kirib kelishi bilan boshlanadiki, she'riy nutqda buning turli shakllari kuzatiladi. Lirik janrlarda har bir gap, jumla, satr faqat nutq jarayonidagi faol komponentga evrilib faollashadi. Bunda fikr-mulohaza, nutqqa nisbatan tasdiq, inkor yoki boshqa shakldagi muayyan munosabatning hosil bo'lishi poetik nutq dialogizatsiyasini tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. Аристотель. Риторика (<http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2685-aristotel-ritorika-kratkoe-soderzhanie>)
2. Большой энциклопедический словарь (<https://literaturologiya.academic.ru/510/%>)
3. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: «Высшая школа», 1971.
4. Жирмунский В.М. Теория стиха. – Л.: «Советский писатель», 1975.
5. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: «Наука», 1977.

6. Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар. – Т.: «Ғафур Ғулом», 1982.
7. Парфи Р. Туркистон руҳи. Сайланма. – Т.: «Шарк», 2013.
8. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: «Высшая школа», 1990.
9. Словарь лингвистических терминов (<https://literaturologiya.academic.ru/510/%>)
10. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: «Akademnashr», 2013.
11. <https://xn--870-iddfg5dar7d.xn--p1ai/faq/cto-takoe-poeticeskaya-rec-kratko>

REZYUME. Maqolada she'riyatda dialog va uning badiiy funksiyasi, badiiy nutqning she'r poetik strukturasiga ta'siri muammosi tadqiq etiladi. Shuningdek, she'riy nutqning jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi hamda o'ziga xosligi, lirikada badiiy kommunikatsiya masalalari nazariy tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается диалог в поэзии и его художественная функция, проблема влияния художественной речи на поэтическую структуру стихотворения. Также теоретически анализируются изучение и своеобразие поэтической речи в мировом литературоведении, вопросы художественной коммуникации в лирике.

SUMMARY. The article examines dialogue in poetry and its artistic function, the problem of the influence of artistic speech on the poetic structure of a poem. The study and originality of poetic speech in world literary criticism, issues of artistic communication in lyrics are also theoretically analyzed.

БИОГРАФИЧЕСКИЙ ХРОНОТОП В НОВЕЛЛЕ ЮРИЯ НАГИБИНА «ОТ ПИСЬМА ДО ПИСЬМА»

М.У.Рахманова – *старший преподаватель*

Н.В.Воронцова – *старший преподаватель*

Академия Вооружённых сил Республики Узбекистан

Таянч сўзлар: хронотоп, бадий вақт, бадий макон, дунёнинг фазо-замон тасвири, хронотопик.

Ключевые слова: хронотоп, художественное время, художественное пространство, пространственно-временная картина мира, хронотопика.

Key words: chronotope, artistic time, artistic space, spatio-temporal worldview, chronotopy.

Художественное время и художественное пространство – важнейшие характеристики художественного образа. Литературно-поэтический образ, развёртываясь во времени (как последовательность текста), своим содержанием воспроизводит пространственно-временную картину мира, притом в её символично-идеологическом аспекте.

М.М.Бахтиным был введён термин «хронотоп», понимаемый как «существенная взаимосвязь временных и пространственных отношений, художественно освоенных в литературе». Учёный напрямую связывает хронотопоу литературного произведения с его жанровой природой. «Можно прямо сказать, что жанр и жанровые разновидности определяются именно хронотопом, причём в литературе ведущим началом в хронотопе является время», – пишет исследователь [3:234].

М.М.Бахтин вводит и обосновывает понятие «биографическое время», понимаемое как определяющая категория в организации важнейшего типа художественного освоения времени и пространства – жанра биографии. Специфика реализации этой категории просматривается учёным на материале античного романа: именно на античной почве завершилось оформление основных форм пространственно-временного единства.

Данная статья ставит перед собой цель показать специфику пространственно-временной организации рассказа Ю.Нагибина «От письма до письма», входящего в цикл новелл, посвящённых жизни известных писателей прошлого и опубликованных автором под названием «Вечные спутники». В качестве теоретической базы в работе используется концепция, разработанная М.М.Бахтиным.

Жанрообразующая доминанта, объединяющая научные, популярные, академические и художественные биографические тексты, – фактический материал, на основе которого даётся картина жизни человека, развитие его личности в связи с общественными обстоятельствами эпохи. Время и место числятся как реально существующие или существовавшие в прошлом. Авторский комментарий, вынесенный в начало произведения сразу же вступает в полемику с традицией: писатель утверждает возможность вариаций как в «мире веско материальном», так и в «духовной сфере». В качестве иллюстрации Нагибин приводит факт не литературной, реальной действительности: «В Болдино посетители показывают пушкинскую усадьбу с тщательно обставленным барским домом, конторой, службами, парком. При этом не скрывают, что обстановка собрана по признаку типичности для помещичьего быта средней

руки тех давних лет, что парка вообще не было. Но это не мешает тысячам людей благовенно взирать на прилизательно вычисленный пушкинский мир и чувствовать своё сближение с великой тенью» [2:181].

Ю.Нагибин отказывается от пространственно-временной условности: пространство и время предельно конкретизировано. Кроме того, привлекается фактический материал, работающий на восприятие описываемого как реально происходившего в прошлом: «Уезжая в конце августа 1830 года из Москвы в Болгарию, Пушкин отправил Петру Александровичу Плетнёву... печальнейшее письмо: «Сейчас еду в Нижний, т.е. в Лукоянов, в село Болдино...»» [2:181]. Однако писатель утверждает своё право на «вариативность» в событийной плоскости: «Я предлагаю свой вариант случившегося, ничуть не менее допустимый, чем вариант пушкинского быта, воплощаемый в мемориале, Болдино» [2:181].

Такая установка писателя на множественность интерпретаций, «вариативность» может быть рассмотрена как элемент постмодернистской поэтики с её ориентацией на концепции «виртуальной реальности», «возможных миров» и «альтернативной истории».

М.М.Бахтин выделяет два типа построения античной биографии: энергетический и аналитический. В основе первого типа лежит изображение человеческой жизни (БИОГА) не путём аналитического перечисления характерологических свойств человека и объединения их в твёрдый образ, а путём изображения поступков, речей и других проявлений и выражений человека. Время энергетического типа биографий линейно (в классическом варианте – это жизнь человека с момента его рождения и до смерти), это время раскрытия характера, но не время становления и роста человека; путь раскрытия характера ведёт только к выполнению той формы, которая была предначертана с самого начала, но не к изменению и становлению самого характера.

Тип аналитической биографии основывается на схеме с определёнными рубриками, по которым и распределяется весь биографический материал: общественная жизнь, семейная жизнь, отношения к друзьям и т.д. Различные черты и свойства характера подбираются из различных и равномерных событий и случаев жизни героя и разносятся по указанным рубрикам.

В рамках современной литературы невозможна реализация ни одной из классических биографических схем в чистом виде. Интересным представляется анализ реликтовых форм, позволяющих обнаружить в биографических произведениях современной литературы ти-